

“INSON MANZARALARI” EPOPEYASI TARJIMASIDA MUALLIF MAQSADINI QAYTA TIKLASH MASALASI

Axmakov Dostonbek Xasanboy o‘g‘li
ToshDO‘TAU talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘tgan asrning 70–80-yillarda taniqli shoir va mutarjim Rauf Parfi tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan erkparvar turk shoiri Nozim Hikmatning “Inson manzaralari” epopeyasining o‘zbekcha matni asliyat (bu o‘rinda ruscha matn) bilan qiyoslanadi. Asarning turli yillarda chop etilgan ikki nusxasi ham o‘zaro solishtirilib, mutarjim tomonidan yo‘l qo‘yilgan yutuq va kamchiliklar ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: mutarjim, epopeya, milliy kolorit, realiya, ohangdorlik, vaznni qayta tiklash.

ABSTRACT

This article compares the Uzbek text of the epic “Human Landscapes” by the libertarian Turkish poet Nazim Khikmat, translated into Uzbek by the famous poet and translator Rauf Parfi in the 70s and 80s of the last century, with the original (in this case, the Russian text). Two copies of the work published in different years are compared and the achievements and shortcomings of the translator are shown.

Keywords: translator, epic, national color, reality, melodiousness, restoration of weight.

O‘zbekiston xalq shoiri Rauf Parfi hurriyatparvar turk shoiri Nozim Hikmatga ixlos qo‘ygan shoir edi. Bu muhabbat shu darajada ediki, buyuk salafining dolg‘ali ovozi, she‘r yozish tarzi shoirimizning o‘z ijodida ham nurli iz qoldirganini sezish qiyin emas.

Rauf Parfi o‘z tarjimaviy ijodining talay yilini Nozim Hikmatga bag‘ishladi. U qadamba-qadam ustozining ruhiy dunyosiga kirib borib, bepoyon poetik olamini biz uchun kashf etdi. Buning natijasida “Inson manzaralari” nomli san’at asari vujudga keldi.

Bu asarni muallif epopeya deb nomlagan, bu bilan undagi qamrovdorlik, ko‘p mavzulik, epiklikni ta’kidlamoqchi bo‘lgan. Ammo u turli-tuman hikoyalar,

sarguzashtlar majmuasi, “Qo‘shnilardan boshqa hech kim tanimaydigan” mashhur yo‘qsillarning oddiy “tarjimayi holi” bayoni emas [

“Inson manzaralari” – katta liro-epik doston, bir necha shunday poemadan tuzilgan o‘ziga xos epopeya. Shoirning poetik so‘z vositasida musavvirlik qilish san’ati bunda ajib tarzda gavdalangan. Barcha ibora va ishoralar, satrlar, ohang-intonatsiya ham ana shu tasvirga xizmat qildirilgan, ranglar, tovushlardan tarkib topgan “ashyoviy dalillar” hammasi yig‘ilib, fojiali lavhalar chizadi, turli-tuman ruhiy iztiroblarni ko‘rsatadi [3: 2001, 169].

Rauf Parfi tarjima qilar ekan, uning oldida oldida uzun-qisqa satrlarning almashib, tizmalanishidan hosil bo‘ladigan salobatli marom, ichki botiniy to‘lqinlar zARBini har qadamda sezdirib turadigan sarbast simfoniyaning turli ovozli, turli pardali garmoniyasini buzmasdan, favqulodda istioralar tazotidan suvratlanadigan dardli voqealar, tiynatlar, holatlarni shikast yetkazmay o‘zbek o‘quvchisiga yetkaza bilish vazifasi turardi. O‘zbek shoirining Nozim kalomiga bo‘lgan e’tiqodi, chinakam jo‘shib ijod qilishi bu ulkan vazifani muvaffaqiyatli ado etishga olib keldi. Natijada “Inson manzaralari”ning Rauf Parfi tomonidan o‘zbekchalishtirilgan nashri 20-yillardan beri she’rlari tilimizga o‘girilayotgan N. Hikmat merosini o‘zlashtirishning yangi, yuqori bosqichi bo‘lsa, ikkinchi tarafdan, Rauf Parfining ijodiy yuksalishida muhim hodisa sanaladi.

Ayrimlar turkiy tillardan tarjima uncha qiyin ish emas, deyishlari ham mumkin. Yuzaki qaragandagina shunday. Bunda qisman lug‘aviy-grammatik mushtaraklik mavjud, bunda ma’nodosh so‘zlar anchani tashkil etadi. Binobarin, turk shoirini tarjima qilish bir qadar tabdil xarakteriga ega. Rauf bundan unumli foydalangan.

Lekin xuddi shu tabdil-tarjimaning o‘ziga xos qiyinchiligi, yechilishi zarur bo‘lgan muammolari ham bor. N. Hikmat tarjimalari tarixini kuzatgan odam buni yaxshi anglaydi.

Bu yerda gap faqat tilni tilga “moslash”, ma’nosi to‘g‘ri keladigan so‘zlarni o‘zgarishsiz olishda emas. Hamma gap Nozimning she’riyat olamini tarjimon mavqeidan turib o‘zlashtira olish, uning shoir-musavvirlik mahorati, buyuk san’atkor ekanligini o‘zbek kitobxoniga to‘kis yetkazishdan iborat edi.

“Inson manzaralari”ning har bir misrasi, har bir ifoda-iborasi bir rang, jilo, chiziq-chizgich. Ular mutanosiblikka kirishib, ajoyib simmetriyani vujudga keltiradi, hayotdagi qorishiqlik, inson psixologiyasidagi ziddiyatli “tartibsizliklar” zaruratini ochadi [6: 1956, 192].

Shoir ham ijtimoiy-sinfiy “qarama-qarshiliklar birligi”dagi qatlamlar g‘alayonini; ruhiy ustuvorlik, irodalar qudratini, ham zolimlar vahshiyligi ostida toptalgan ojiz bandalarni, o‘z-o‘ziga qul bo‘lgan nodon, johil kimsalar, hirs-hasad qurbaniga

aylangan odamlar fojiasini tabiatshunos olim zarrabin ostida kichik jonzotlar olamini kattalashtirib, qabariq holatga keltirib o‘rgangani singari, bizga yiriklashtirib, bo‘rttirib ko‘rsatadi: ayanch turmushning ko‘zga ko‘rinmas “zarurat”larini tasvir maydoniga olib chiqadi. Pikasso suvratlarini ko‘rganda fashizm kirdikorlaridan dahshatga tushganday dahshatga tushamiz [2: 1968, 46].

Voqean, “Inson manzaralari”ning asosiy lavhalari ham 40-yillarda, jahon urushi davrida kechadi. Fashizm vabosi, ajdarho yanglig‘, Turkiyani ham komiga tortar, shoir vatanida ham hayvoniq hirslar, yovuzlik bosh ko‘targan edi.

Ruhiy majruh, jismoniy mayib-nogiron shaxslarning ko‘payishiga shu nobop zamon sababchi, deydi shoir. Har turli intilishlar, mayllar, hirs-havo, turfa tushuncha va fikrlarni qalashtirib keltiradi va bu bilan davr ziddiyatini tahlil etadi. “Inson manzaralari”da umid va hasrat, o‘lim va hayot olishadi, ulug‘lik va bema’nilik, murakkablik va soddalik yonma-yon turadi.

Shu bois Nozimning ibora-obrazlari, yuzaki qaraganda, o‘zaro nomuvofiq tuyulsa-da, ammo aslida, buning zamirida hayotning murakkab ichki oqimlari aks etgan bo‘ladi, jo‘yali va “mantiqsiz” obrazlarni qabatlashtirib, baqamti qo‘yib, real manzara hosil qilinadi. Chunonchi, epopeyaning uchinchi kitobi shunday boshlanadi:

Ko‘zga ko‘ringan maydon
tep-tekis,
Qip-yalang‘och
va **qizil qalampir singari achchiq** [4: 1982, 227].

Maydonning qalampirga nima aloqasi bor? Nega maydon qalampirday achchiq? Yana tag‘in qizil qalampirday? Bunday “notabiyy” tashbeh bizning oddiy tushunchalar, ko‘nikmalarga zid. Lekin bu ajoyb obraz! U shu maydonda g‘oyat xunuk, taxir va achchiq voqeaneaning sodir bo‘lishiga darakchi.

Shundan so‘ng fojiaga olib keladigan qorong‘i ranglar quyuqlasha boradi: “islari sarg‘aygan yalpiz”; *qavjiroq o‘tlar, tikanaklar*; “bo‘zqirda so‘zanaklar va chirildoqlar kuylashar qo‘shiqlarning eng umidsizini”; osmondagi bulutlar “pag ‘a-pag ‘a, og‘ir-og‘ir” qimirlaydi, yirtqich maxluq – kalxat uchadi, ov payida yurgan tulki...

Ana shu tasvir ichida jazmani Mustafo bilan reining uyidan qochgan Nigor voqeasi keltiriladi. U “erining urug‘i” – olti oylik chaqaloqdan qutulish uchun uni shu maydon o‘rtasidagi quduqqa tashlaydi: “o‘lik sanalmas olti oylik o‘lik”. Mana mudhish fojianing benazir, nozimhikmatcha tasviri:

Yirtqichdir kalxat.

Tulki ayyor.

Quduq chuqur.

Bo‘z qir so‘ngsiz

va qizil qalampir singari achchiq.

Kuladi shisha tugmaning ichinda bir mittigina terak [4: 1982, 28].

Nigor haqida ham, Mustafo haqida ham bir og‘iz yomon gap yo‘q, shoir ularni la’natlamaydi, hatto ochiqchasiga ayblamaydi ham.

Lekin kitobxon-chi? Uning qalbida bu dahshatli tasvirdan so‘ng zo‘r tug‘yon, g‘oyat ayanch bir tuyg‘u qo‘zg‘aladi. Obrazlarning bunday oxirida jamlanib, qatorga tizilishi fofia dahshatini qabartirib, tasvirning zilzilamonand kuchini barpo etgan. Bu panoramali tasvir inson qismati, uning ojizliklari ustidan dod deb faryod chekadi, Inson tabiatida darranda-hayvonlardan ham yirtqichroq bo‘lgan vahshiylik bor. Zero, hech bir darranda o‘z bolasiga qasd qilmaydi!

Bu satrlarning taxlanish tartibini, obrazlar, tashbehlarini o‘zgartirish yoki o‘rin almashtirish mumkin emas. N. Hikmatning hatto oddiy axborotday tuyulgan “roviya” jumlalarida ham she’riy obraz bor, ya’ni ritm, musiqiy oqim obrazi bor. Chunki epopeya zabti boshdan-oyoq Turkiyaning dard-u alamini yuklab, belgisiz tomonga yugurayotgan tezyurar poyezdning harakat ritmiga bo‘ysundirilgan.

Tarjimonning “erkin ijodkorligi” tufayli asardagi asosiy fazilat – sarbast she’rining zarbi saqlangan, ko‘zguda aks etgandek namoyon bo‘lib turgan ko‘p qiyofali dunyoning lavhalari nozimona ruhda berilgan.

O‘zbek kitobxonni asarni o‘qiganda, yuzlab mamadchalarning fojiali taqdiri ko‘z oldidan o‘taveradi.

Shoir she’r tili bilan buyuk haqiqatlarni suvratlaydi. Har bir lavha – haqiqat portreti. F. M. Dostoyevskiy kabi, “yomonni yana-da yomonroq” (V. Mayakovskiy), manfurni yana-da manfurroq, tubanlikni yana-da ham tubanroq shaklda tasavvur etishimiz, undan hazar qilishimiz uchun inson ruhiyatining turli-tuman “ishlari”, dunyo buqalamunligini kashf etadi. Shu zaylda “Inson manzaralari”ni o‘qirkanmiz, zamon va inson dardini nafaqat qalban his etamiz, shuur bilan mohiyatiga yetamiz, ko‘z bilan ko‘rib, qulq bilan eshitamiz, balki uni badanimiz – jismimiz bilan tuyamiz ham.

Bir burda non deb qon qusib, jon bergen mamadlar, bitlab sasib ketgan minglab mamadchalarning mudhish taqdiri haqida cheksiz iztirob ila hikoya qiluvchi bu asar Dantening “Ilohiy komediya”si, Balzakning “Insoniyat komediya”si, Pablo Nerudanining “Umumbashariy qo‘shig”ning davomi sifatida va, ayni vaqtida, yangi tasviriy usulning hosilasi – XX asrning yirik obidasi bo‘lib qoladi tilimizda.

Gap Nozim Hikmatning “Inson manzaralari” epopeyasi haqida ekan, turk shoiri asarlarining rus tilidagi tarjimalariga bir nazar tashlaylik. Nozim Hikmatni ruschaga E. Bagritskiy, K. Simonov, M. Lukonin, B. Slutskiy, L. Martinov, D. Samoylov, M. Pavlova singari shoirning o‘ziday zabardast adiblar tarjima qilishgan.

Lekin Nozim Hikmat o‘z she’rlarining ruscha tarjimalaridan qoniqmaganligi haqida doimo gapirib kelgan. Shu boisdan ham rus tarjimonlari erksevar shoir asarlariga qayta-qayta murojaat qilganlar. Chunonchi, o‘z vaqtida inqilob madhiyasi bo‘lib jaranglagan “Karam kabi” she’rini Leonid Martinov bir necha bor o‘girgan. Mazkur asarni L. Martinov elliginchi yillarda tarjima qilgan bo‘lsa, ikkinchi variantga yetmishinchi yillarda qo‘l urgan.

1950-yil tarjimasida:

*Я слышу;
– Лучше не кричи,
А то и сам испепелишься
Молчи!
А то ведь, как Керем,
И сам ты в пепел превратишься.
Здесь не с кем поделиться горем,
Окаменели здесь сердца.
Здесь воздух тяжелей свинца.
Да! Я хочу сгореть вот так,
Как некогда сгорел Керем!
Сгорю вот так!.. [5: 1958, 47]*

Tarjimaning ikkinchi varianti:

*Он говорит
– Зачем кричишь?
Себя ты в пепел превратишь!
Вот, как Керем,
сгоришь,
сгоришь!
Здесь много бед,
Подмоги нет.
Оглохли уши у сердец,*

Здесь воздух давит, как свинец.

Я говорю

в ответ уму:

– Пусть, как Керем, сгорю,

сгорю! [7]

Keyingi tarjima shakl va ma’no jihatidan ham turkcha asliyatga juda yaqin. O’zbek tarjima mактабida bunday tajribalar juda kam. Ammo, bor.

“Inson manzaralari” epopeyasining birinchi kitobini Rauf Parfi 1972-yilda tarjima qilib, chop qildirgan edi [1: 1972]. Saksoninchi yillarning boshlarida mazkur asarning birinchi, ikkinchi va uchinchi kitoblarini G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti bosmadan chiqardi. Birinchi kitob tarjimasi haqida o‘z paytida matbuotda va “Tarjima san’ati” maqolalar to‘plamining uchinchi kitobida (1976) maqolalar va taqrizlar bosilgan edi [8: 1976, 146]. Afsuski keyingi qariyb qirq yil mobaynida asarning ushbu mukammal tarjima varianti haqida tarjimashunosligimizda aytarli tadqiqot qilinmadi.

Kitobning ikkinchi nashrini varaqlaganda, Rauf Parfi tadqiqotchilarning fikrini e’tiborga olib, tarjimada yo‘l qo‘yilgan ko‘pgina nuqsonlarni tuzatganligini, asarning badiiyligini yanada oshirganligini ko‘ramiz:

*Fuod tarsonda chilangar edi,
Qo‘lga tushdi 19 yoshida,
Ikki yildir qamoqda yotar: –
o‘rtoqlari bilan o‘qigan
qandaydir kitobni* [1: 1972, 67].

Bu parchadan Fuodning nima sababdan qamoqqa tushganligi, qanaqa kitobni o‘qiganligi noma’lum. Satrlar orasida izchillik yo‘q. Gap tugamay qolgan.

Keyingi nashrda:

*Fuod tarsonada chilangar,
19 yoshida qamoqqa tushdi,
uch o‘rtoq pardalarni tushirib,
bir kitobni o‘qiganlari uchun* [2: 1982, 56].

Birinchi variantda “pardalarni tushirib” iborasi yo‘q. Shu boisdan ham unda maqsad aniq emas. Nozim Hikmat mana shu ibora orqali Fuodning turk hokimiyati

tomonidan taqiqlangan kitobni pinhoniy o‘qigani uchun ham qamalganligiga ishora qiladi. Mana shu iboraning tiklanishi xiralikni birmuncha oydinlashtirgan.

Yoki:

*Bultur olib keldim bir yunon qizni,
yunon ayyor bo ‘lar,
o ‘xshamaydi bizning turklarga...
O ‘zini tutdi,
men tufayli ishlab ham oldi,
hozir nishonli [1: 1972, 149].*

Tahrirdan so‘ng:

*Bultur olib keldim bir armani qizni,
armani millati ayyor bo ‘ladi,
o ‘xshamas bizning turklarga...
Ro ‘zg ‘orini o ‘nglab oldi,
sepini butladi.
Kofirlarning odati ma ’lum-ku,
Hozir unashilgan [2: 1982, 137].*

Birinchi tarjima bilan ikkinchi tarjima orasida katta farq bor. Bir millatda bo‘lgan xususiyatni ikkinchi bir millatga to‘nkash, *unashtirilgan* so‘zini “*nishonli*” deb o‘girish, “*sepini butladi*”, “*kofirlarning odati ma ’lum-ku*” misralarining tushib qolishi tufayli oldingi tarjimada Vadodning “*pichingi*” anglashilmay qolgan.

Vadod salbiy tip, qizlarni sotib boylik orttiruvchi qo‘shmachi. Shuning uchun ham u turk qizlariga armani qizni boyitgani, ammo u Vadodni aldab ayyorlik qilib ketib qolganini so‘zlarkan, “*kofirlarning odati ma ’lum-ku*”, deydi va turk juvonlarining o‘ziga itoatkor bo‘lishini talab qiladi.

Ikkinci tarjimada bu fikr o‘z ifodasini topgan.

“Inson manzaralari”ning ikkinchi nashrida bunday o‘zgarishlar juda ko‘p. Ammo asarda hali ham turkcha so‘zlar, o‘zbek kitobxonasi tushunmaydigan iboralar, ortiqcha so‘zamollik, gohi o‘rinlarda ichki ritmnning buzilishi sezilib turadi. Masalan, “*qumrol*” degan so‘z uch kitobda ham ko‘p uchraydi, tarjimon uni o‘z holicha qoldirib ketavergan: “*bilaklari ustida Alining qumrol boshi*” (14-bet); “*xafa bo ‘ldi kalla, qumrol qoshlarini chimirdi*” (87-bet); “*qumrol sochli va pakana*” (93-bet)...

“*Qumrol bosh*”ni rus tarjimoni M. Pavlova “*каштановая голова*” deb o‘giradi [5: 1958, 198]. “Ruscha-turkcha lug‘at”da mazkur so‘zning ikki ma’nosini berilgan: “светло-каштановый свет”, “шатен”. Rauf Parfi ham buni “*qo‘ng‘ir bosh*”, “*qo‘ng‘ir qosh*”, “*qo‘ng‘ir soch*” deb tarjima qilsa tushunarli bo‘lardi. Albatta, bular keyingi nashrlarda tuzatiladigan eng mayda kamchiliklardan sanaladi.

Shunday qilib, R. Parfining Nozim Hikmat asarlarining tarjimoni sifatidagi faoliyati o‘ziga yaqin ijodkor asarini tarjima qilish o‘ng‘ay va bu muvaffaqiyat qozonish omillaridan biri, degan eski fikrni yana bir karra tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Hikmat Nozim. Inson manzaralari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972. – 248 b.
2. Радий Фиш. Назым Хикмет. – М.: Молодая гвардия, 1968. – 448 стр.
3. Сверчевская А. К. Известный и неизвестный Назым Хикмет. Материалы к биографии. – М.: Институт востоковедения РАН, 2001. – 192 с.
4. Hikmat Nozim. Inson manzaralari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1982. – 320 b.
5. Назым Хикмет. Избр. соч. в двух томах, т. 1. – М.: Гослитиздат, 1958. – 248 стр.
6. Л. Осповат. Путь к эпосу, «Всеобщая песнь» Пабло Неруды. – «Иностранный литература», 1956, № 9. – стр. 192.
7. <https://voplit.ru/article/chelovecheskaya-panorama-nazyma-hikmeta/>
8. Tarjima san’ati. 3-kitob. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1976. – 240 b.